

PAPER

FIZIKA ATAMALARI ASOSIDA YARATILGAN IBORALAR VA ULARNING MAJOZIY MA'NOLARI

Raximova Durdonaximova qizi^{1,*}

¹Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 16-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi

* durdonaraximova32@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada fizika faniga oid bo'lgan atamalarining o'zbek tilida keng qo'llaniladigan iboralarida foydalanilishi, ushbu atamalarining fan doirasidagi izohi va o'zbek iboralaridagi majoziy ma'nolari haqida fikr yuritiladi. Maqolada fizik atamalarining iboralarida qo'llanish o'rni, ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan va urg'u berilgan. Shuningdek bu iboralarining mazmuni, ularning kelib chiqish manbaalari hamda insonlarning kundalik hayotiy holatlarini tasvirlashda fizik termenlarni metaforik tarzda qo'llash sabablari yoritiladi. Maqola fizik tushinchalar qanday obrazli ifodalarga aylanib, nutqqa jonlilik, aniqlik va tasviriylilik bag'ishlashini namoyon qiladi.

Key words: Magnit, bosim, energiya, og'irlik, kuch, portlash, muvozanat, jism, fizik hodisa.

Kirish

Til-inson tafakkuri oynasi bo'lib, unda hayotiy tajribalar, kuzatuvlar natijalari shuningdek, bilim va ma'naviyatimiz, his tuyg'ularimiz o'z ifodasini topadi. Insonning bilim darajasi oshib, dunyoqarashi kengayib borgani sayin uning so'z boyligi, nutq ravonligi ham ortib boradi. Ona tilimizda fanlarga oid termenlarning qo'llanilishi keng hisoblanadi. Ayniqsa «Fizika» faniga oid atamalar kundalik hayotimizda ko'plab metaforik iboralar sifatida qo'llaniladi. «Bosim oshdi», «Muvozanatdan chiqdi», «Og'ir vaziyat»,

«Magnitdek tortadi» kabi iboralar fizik jarayonlar mohiyatiga tayangan holda majoziy ma'no kasb etadi. Ushbu maqolada fizik atamalarining tilimizdagi obrazli iboralar shakllanishiga ta'siri, ularning semantik kengayishi va majoziy mazmuni tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari sohasi jadal rivojlanishi, bir qator fanlarning ham o'rganilishi va amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlarini kengayishiga zamin yaratmoqda. Hususan, texnikaning rivojlanishiga bo'lgan ehtiyoj «Fizika» fanining chuqurroq o'rganilishi va amaliyotda tadqiq etilishini talab qiladi. Fizika

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

yunoncha «physis» soʻzidan olingan boʻlib, tabiat degan maʼnoni anglatadi.[2] Ushbu nomlanishdan kelib chiqib taʼrif beradigan boʻlsak fizika tabiat hodisalarini oʻrganadi, til esa insonning ana shu hodisalar haqidagi tasavvurlarini nutqda ifodalovchi vosita hisoblanadi. Shu bogʻ iliqlik bois fizik atamalar koʻpincha hayotiy holatlarni tasvirlashda oʻziga hos metaforaga aylanadi. Atama oʻz maʼnosidan kengayib, tasviriy emotsional mazmun kasb etadi. Quyida misol tariqasida fizik atamalar asosida yaratilgan, nisbatan koʻp qoʻllaniladigan iboralardan bir qanchasini koʻrib chiqamiz va tahlil qilamiz.

1) «Ogʻir vaziyat»-iborasi fizik atamadan kelib chiqqan boʻlib, adabiyotda juda keng ishlatiladigan badiiy-metaforik ifoda hisoblanadi. Adabiyotda ogʻir vaziyat, majoziy maʼnoda hayotimizda uchraydigan qiyin holat, yechimi mushkul muammo, qahramonning qiyin tanlov orasida qolishi kabi murakkab holatni tasvirlash uchun qoʻllaniladi. Ushbu ibora inson boshidan kechirayotgan muommolarning jiddiy ekanligini ifodalaydi. «Fargʻona vodiysiga uch tomondan dushman hujum qilib kelayotgan shu ogʻir vaziyatda Umarshayx mirzo hamma xotinlariga iloji boricha iltifot koʻrsatmoqchi boʻldi» [6]. Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» romanidan.

Ogʻirlik kuchi atamasining fizik maʼnosi – yer sirti yaqindagi istalgan moddiy zarraga taʼsir etuvchi kuchni ifodalaydi. [3] Bundan kelib chiqadiki, fizikadagi ogʻirlik tushunchasini adabiyotda metafora sifatida qoʻllanilishiga sabab fan doirasida “yuk”, “ogʻirlik” tushinchalari adabiyotda psixalogik yuk sifatida qoʻllanadi va holatning salbiyligini kuchli koʻrsatadi.

2) “Bosim oshdi” – iborasi fizika atamalaridan olingan eng kuchli badiiy metaforalardan biri boʻlib, adabiyotda bu ibora vaziyatning keskinlashgani, ruhiy, axloqiy yoki ijtimoiy yukning ortganligi, qahramonning bosim ostida qolganligini ifodasi oʻlaroq qoʻllaniladi. Demak majoziy maʼnosi inson ruhiyatida zoʻriqish, talab va majburiyatlarning keskin koʻpayishi, ish jarayonidagi stress yoki jamiyatdagi tanglikni tasvirlashda qoʻllaniladi. «Aksincha, bora-bora bunday besamar chiranishlarini yomon koʻra boshladi. Ki bosim mushoxadaga ham majoli qolmagandi uning... Faqat...faqat sher kelar edi uning tiliga». [9] Ulugʻbek Hamdam “Muozanat”.

Fizik termin sifatida bosim – biror jismning boshqa jism sirtiga tik yoʻnalishda taʼsir qiladigan kuchlar intensivligini ifodalovchi fizik kattalik. [2] Demakki, fizikada bosim kuchning yuzaga taʼsirini bildirsa, adabiyotda ibora sifatida bosim, voqea yoki holatning odamga ruhiy kuch bilan taʼsir qilishini ifodalar ekan.

2) «Magnitdek tortadi» iborasi biror bir narsaga, deylik biror sohaga, shaxsga, buyumga kuchli qiziqish, talpinish, mahliyo boʻlishni ifodalaydi. Yaʼni badiiy metafora sifatida kimningdir eʼtiborini his-tuygʻularini yoki qiziqishini oʻziga jalb qilish maʼnosida qoʻllaniladi. Fizikada esa magnit-atrofida maydon hosil qilgan va shu maydon orqali tortish kuchini yuzaga keltiradigan yaʼni metall boʻlaklarini oʻziga tortib turadigan jismni ifodalaydi.[2] Ammo oʻzbek badiiy adabiyot namunalarida bu ibora biroz kam uchraydi. Bunga sabab “magnit” atamasi koʻp hollarda “ohangrabo” deb qoʻllanishi dep qarashimiz mumkin. Zero, buyuk allomamiz Abu Rayhon Beruniy ham fizikada qoʻllanilgan magnit atamasini oʻz asarlarida ohangrabo dep nomlaganlari fikrimizning yaqqol isbotidir. Badiiy adabiyot namunalarimiz orasida “magnit” atamasi ishtirok etgan badiiy parcha izlar ekanman Abdulla Qahhorning hikmatlarida “Hayot magnit-oʻziga tortadi yozuvchi shu magnitni oʻziga yuqtira olsagina kitobxonni oʻziga torta oladi” aforizmiga koʻzim tushdi. Bunda yozuvchi hayot ilmini puxta egallagan yozuvchigina magnit singari kitobxonni koʻrinmas kuch orqali oʻziga tortib turadi degan fikrni ilgari surmoqda. Jahon adabiyotiga nazar tashlaydigan boʻlsak “Magnitdek tortish” iborasi qatnashgan talay adabiyot namunalari borligiga guvoh boʻlamiz. “Thus by an inevitable necessity, as a magnet attracts steel-filings, so did our man of business draw to himself the difficulties which everybody met with.” [7] Nathaniel Hawthorne “The scarlet Letter”. Yaʼni yozuvchi inson hayoti davomida barcha muommolarni, qiyinchiliklarni magnit metal boʻlaklarini tortgani kabi oʻziga tortib turishini taʼkidlagan.

3) «Muzlab qoldi» – iborasi majoziy maʼnoda kuchli hayratlanish yoki qattiq qoʻrqish, taʼsirlanish, bir zum oʻzini yoʻqotib qoʻyish va koʻpincha sovuqni qattiq his qilish holatlarini ifodalaydi. Maʼnosi: tuygʻularning toʻxtashi, harakatsizlik, sovuqlik yoki hayratdan harakatsiz qolishni

ifodalaydi. “Birdan Tirkashning vujudi muzlab qoldi. Boyagi qaynoq hislar o‘rnini allaqanday yovvoyi kuch egalladi-yu, tarsakilab yubordi uni.”[4]. O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari, Muhabbat”. Fizikada muzlash- bu suvning suyuq holatdan qattiq holatga o‘tish jarayoni hisoblanadi.[2]

4) Qaynadi- bu ibora ham fizik hodisaga asoslangan metafora sifatida adabiyotda keng qo‘llaniladi.[1]. Asosan qahramonning ichki his tuyg‘ulari jo‘shqinligini ifodalashda, biror narsa yoki shaxsning (odam qaynadi), hodisaning (g‘iybat qaynadi), holatning (g‘azabi qaynadi) mo‘l-ko‘lligi ma‘nosida ham ishlatiladi. “Oytug‘di onaning birdan g‘azabi qaynadi. Ayozzodaga jirkanib ko‘z qadadi”. [8] Anvar Obidjon “Kezargon boychechak”. Fizikada qaynash- fizik hodisa bo‘lib suyuqlikning bug‘ holatiga o‘tishi ya‘ni suyuqlik ma‘lum haroratga yetganida uning butun yuzasi bo‘ylab pufakchalar hosil bo‘lish jarayonini ifodalaydi.[3]

5) «Portladi»- bu ibora tilimizda turli holatlarni tasvirlashda ta’sirchanlikni orttirish uchun qo‘llaniladi Masalan,

a) Jahldan Portladi-ma’nosi odam sabr qilib ohiri ichida yig‘ilgan g‘am g‘ussa asabiylik va jahlini bir zumda yuzaga chiqarishi. Masalan, «U bu azoblarga uzoq sabr qildi va ahiri portladi»

b) Xursandchilikdan portladi – juda katta quvonch, xursandchilikning darhol yuzaga chiqishi. Masalan, «Gol urilganda stadion quvonchdan portladi».

c) Xabar portladi- kutilmagan yangilikning to‘satdan tarqalishi. «Mashhur san’atkorning uylanganligi haqidagi xabar ijtimoiy tarmoqlarda portladi.

d) Kulgi portladi- hammaning birdan kulib yuborishi. «Davrada kulgi portladi».

“ Taniyman,Bekjon o‘g‘lim, adangiz bilan frontavoy o‘rtoq edik. Tilyog‘lamalik bilan aytilgan bu gapdan Asadbek portladi”.[5.] Toxir Malik “Shaytanat 2-kitob”.

Fizikada portlash-juda katta ichki bosimning to‘satdan tashqi muhitga chiqish hodisasini ifodalaydi.[3]

Yuqorida keltirilgan iboralarning ma’joziy ma’nosi va fizik atama sifatidagi ta’riflariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak metafora sifatida bu atamalarning qo‘llanish sabablarini tushinish qiyin emas. Ya’ni fizik atamalar ifodalaydigan

fizik hodisalar insoniyat ongida, harakatlarida sodir bo‘ladigan jarayonlarga qiyoslab, o‘xshashlik borligi sabab qo‘llanilishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Fizikada insonning o‘zi ham fizik jism dep qaralishi va tabiatda sodir bo‘ladigan fizik jarayonlarda insonning bevosita ishtirok etishi ham fizika va inson va uning bir bo‘lagi sifatida ona tilimiz orasidagi uzviy bog‘liqlikning yaqqol ifodasi sanaladi. Zero til bu ijtimoiy hodisa bo‘lib inson tafakkuri va ichki tushinchalarning nutqdagi ifodasi, muloqot vositasidir. [1]

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek tili naqadar boy va serjiloki, bu uning boshqa fanlar bilan integratsiyasida ham o‘z isbotini ko‘rsatadi. Ya’ni tilimizni chuqur o‘rganish niyatida ekanmiz bizga boshqa fanlardan ham yangi bilimlarni egallashimiz, izlanishimiz va zamon bilan hamnafas bo‘lishimiz talab qilinadi. Darhaqiqat ilm ummonida suzishni istagan har qanday inson harakatdan olg‘a intilishdan to‘xtamasligi zarur. Zero, biz ayni damda axborot texnologiyalar ilm fan jadal rivojlanib borayotgan zamonda yashamoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Iboralar va ularning ma’no tarkibi tavsifi nomli maqola, Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2022-yil 8-son. –B.14-17.
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. –Toshkent,2000–yil.
3. Usmonov M.Umumiy fizika Navro‘z 2006–yil.– B. 34-40.
4. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –Toshkent 2009. –B.315.
5. Toxir Malik. Shayanat. 2-kitob. Sharq nashriyoti. –Toshkent–2013. –B–204.
6. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Yangi asr avlodi. Toshkent–2015.
7. Nathaniel Hawthorne The Scarlet Letter. Ticnor AQSH–1850. –P.39.

8. Anvar Obidjon Kezargan Boychechak. Cho'lpon nashriyoti Toshkent-2016 B-6
9. Ulug'bek Hamdam Muvozanat romani. Sharq nashriyoti Toshkent-2007 B-182.